E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

KORPORATIV HUQUQNING UMUMIY QOIDALARI. MA'SULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATDA ULUSHLARNING O'TISHI VA QONUNCHILIKDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Sherikbayeva Mushtariy Erkin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi.

erkinovnam97@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada korporatsiyalar tushunchasi ularning turlari, ingiliz huquqida korporatsiyalarning asosiy tarkibiy xususiyatlari, korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solish, korporativ huquqqiy prinsplar, hamda korporatsiyalarning rivojlanish tarixi haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, masuliyati cheklangan jamiyatlarda ulushlarning o'tishida o'ziga xos xususiyatlar hamda bu borada qonunchilikdagi ayrim muammolar va ularga amaliy yechimlar berilgan. Masuliyati cheklangan jamiyatlarda ulushlarning o'tishiga oid sud qarori o'rganilib, unga huquqiy baho berilgan.

Kalit so'zlar: Korporatsiya, ma'suliyati cheklangan jamiyat, ulush, yuridik shaxs, hissadorlik, cheklangan javobgarlik, erkin o'tkaziladigan ulushlar, mulk huquqi, korporatsiya ishtirokchilari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие корпораций, их виды, основные структурные особенности корпораций в английском праве, правовое регулирование корпоративных отношений, принципы корпоративного права, а также История развития корпораций. Кроме того, даны особенности перехода долей в обществах с ограниченной ответственностью, а также некоторые законодательные проблемы и практические решения по этому вопросу. Было изучено решение суда о передаче долей в обществах с ограниченной ответственностью и дана его правовая оценка.

Ключевые слова: корпорация, общество с ограниченной ответственностью, доля, юридическое лицо, вклад, ограниченная ответственность, свободно передаваемые доли, право собственности, участники корпорации.

ANNOTATION

This article discusses the concept of corporations, their types, the main structural features of corporations in english law, the legal regulation of corporate relations, the principles of corporate law, as well as the history of corporate development. In addition, the specifics of the transfer of shares in limited liability companies are given, as well as some legislative problems and practical solutions on this issue. The court's decision on the transfer of shares in limited liability companies was studied and its legal assessment was given.

Key words: corporation, limited liability company, share, legal entity, contribution, limited liability, freely transferable shares, ownership right, members of the corporation. участники корпорации.

KIRISH.

Savdo faoliyatida moddiy manfaatga erishish uchun qadimdan savdogarlar o'zaro birlashib sherikchilik faoliyatini yo'lga qo'yganlar va bu savdoning rivojlanishiga hamda foydaning samarali bo'lishiga yordan bergan. Ushbu ijtimoiy munosabatlarni, hozirgi vujudga kelgan yirik korporatsiyalarning ilk hamda soda rivojlanish tarixi desak mubolaga bo'lmaydi. Hozirgi kunda korporatsiyalar ishtirok etish (a'zolik) tamoyillariga asoslangan tashkilot bo'lib, uni

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

boshqarish maxsus organlar tizimini tashkil etish orqali, uning ishtirokchilari manfaatlarini amalga oshirish uchun yaratiladi.

Ingliz huquqida – biznes korporatsiyalarning 5 ta asosiy tarkibiy xususiyatlari mavjud:

1) mustaqil yuridik shaxs (legal personality);

2) cheklangan javobgarlik (limited liability);

3) erkin o‘tkaziladigan ulushlar (aksiyalar) (transferable shares);

4) kompaniya kengashi tarkibida markazlashtirilgan boshqaruv, korporatsiya nomidan uning organlari harakat qilishi (sentralized management under a board structure);

5) hissadorlarning xususiy kapitalga birgalikda egalik qilishi (shared ownership by contributors of equity capital)[1].

Savdo faoliyatining shiddat bilan rivojlanishida shaxslarning o’zaro birlashuvi muhim ahamiyatga ega, negaki biron - bir yirik tijorat faoliyati bilan shug’ullanishda albatta samarali natijaga erishish uchun, bir shaxsning mablaglari yetarli hisoblanmaydi. Shu sababli ham shaxslar birlashuvi natijasida korporatsiyalarning ilk ko’rinishlari paydo bo’lgan.

Xususan Rimda – “universitetlar” va “kollegiyalar” kabi tushunchalar ishlatilgan bo’lib, bu shaxslar ittifoqi, bundan tashqari qoramol, otlar podasi yoki uy, kema kabi boshqa tushunchalar to‘plamini nazarda tutgan. “Korporatsiya” so‘zi (lotincha) kishilar guruhi, ittifoqi, muayyan kasb yoki manffatdagi kishilar birlashmasi ma’nolarida ishlatilgan. “Korporatsiya” tushunchasi lotinchada yuridik shaxsiyatni anglatuvchi “corpus habere” iborasidan kelib chiqqan. Bunday yuridik shaxs huquqi Rim imperiyasi davrida xususiy shaxslar birlashmalariga berilgandi.[2]

Korporatsiyalarning rivojlanish tarixi quyidagi davrlarni o’z ichiga oladi:

- o’rta asrlar - yakka tadbirkor, sheriklar;
- 19 asrlarda - industrial revolyutsiya – cheklangan mas’uliyat va mustaqil javobgarlikka asoslanga tadbirkorlik subyektlari;
- 20 asrlarda - ommaviy ishlab chiqarish - katta korporatsiyalar- boshqaruv va egalikning bo’linishi, aksiyadorlarning ko’payishi va diversifikatsiyasi;
- 21 asrlarda - moliyaviylashuvning kuchayishi - globallashuv va kapital oqimlari.

Korporatsiyalar shaxslarning va kapitallarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, jumladan Aj, MCHJ lar kapital birlashuviga, shirkatlar hamda kooperativlar shaxs va kapital birlashuviga asoslangan korporatsiyalar sanaladi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat kapital birlashuviga asoslangan korporatsiya hisoblansada, lekin shuni inobatga olish kerakki, jamiyatni sof kapital birlashuvi deb ham bo’lmaydi, qisman shaxslar birlashuvini ham o’zida mujassamlashtiradi, buning sababi, ulushlarni sotish va sotib olish orqali jamiyatga kirish va chiqishdagi bazi to’siqlarning mavjudligidir.

Kontitental Yevropa huquqida korporatsiya kengroq ma’noda tushuniladi. Unga ko‘ra korporatsiya deganda xo‘jalik jamiyalari AJ va MCHJ bilan birga shirkatlar (xo‘jalik shirkatlari), sherikchilikka asoslangan boshqa birlashmalar ham tushuniladi. E’tiborli jihati shuki qonunchiligimizda korporatsiya atamasi normativ hujjatlarda deyarli ishlatilmaydi. Ushbu tushunchaning qonunchilikka kiritilishi meni fikrimcha maqsadga muvofiq bo’lar edi.

[1] B.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq o’quv qo’llanma. Toshkent 2021. 5-6 betlar.
[2] B.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq o’quv qo’llanma. Toshkent 2021. 22-24 betlar.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Korporativ huquq – bu korporatsiyalarni tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish va ularni tugatish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig‘indisidir. Korporativ huquqning predmeti korporativ huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Shu o’rinda korporativ huquqiy munosabatlar deganda, korporatsiyani tashkil etilishi, faoliyat yuritishi va tugatilishi bilan vujudga keladigan huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni tushunishimiz kerak.

Har bir ijtimoiy munosabatlarning huquqiy prinsplari bo’lgani kabi, korporativ huquqning asosiy prinsplari quyidagilardan iborat:

1) proporsionallik prinsipi;

2) ko‘pchilik irodasining ozchilik irodasidan ustunligi (demokratizm prinsipi);

3) daromadni taqsimlashda tenglik prinsipi (ulushlarga mutanosib ravishda);

4) korporatsiya boshqaruv organlarining mustaqilligi prinsipi;

5) korporativ huquqlarni suiiste’mol qilmaslik prinsipi;

6) majburiyatni bajarishda iqtisodiy samaradorlik prinsipi;

Fuqarolik kodeksi yangi loyihasining 76-moddasiga asosan korporatsiyalarning ikki turi ommaviy hamda ommaviy bo’lmagan jamiyatlar ajratilgan.

Ommaviy jamiyatalar sifatida AJ larini ko’rasatishimiz mumkin, uning ommaviyligi shundaki, jamiyatga ta’luqli ma’lumotlar ochiq hamda ulushlar erkin muomalada bo’ladi.

Ommaviy bo’lmagan jamiyatlar sifatida MCHJ va xo’jalik shikkatlarini namoyon bo’ladi. Ularning omlmaviy bo’lmagan jamiyatlar sifatida e’tirof etilishining sababi shuki, jamiyatga oid ma’lumotlar yopiq bo’ladi, hamda ulushlarning o’tishiga doir bir qancha cheklovlar mavjud masalan MCHJ da jamiyatga yangi ishtirokchining kirishi umumiy yig’ilish qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Ulush – bu korporatsiya ishtirokchisiga mulkiy va nomulkiy huquqlar kompleksini taqdim etadi. Ishtirokchi ulushining nominal qiymati – bu pul ifodasidagi shartli abstrakt qiymat bo‘lib, jamiyat tashkil etilganda ishtirokchining qo‘shgan hissasi qiymati bilan belgilanadi. Aniqroq aytadigan bo’lsak nominal qiymat ishtirokchining o’z hissasini kiritgadagi qiymat hisoblanadi.

Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati kompaniyaning sof aktivlari qiymatining, ishtirokchining ulushi hajmiga mutanosib qismiga to‘g‘ri keladi. Haqiqiy baho ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymatiga teng. Ulushning haqiqiy qiymati ayrim hollarda jamiyat (uning ishtirokchilari) ning ishtirokchi va uchinchi shaxslar oldidagi, masalan, ishtirokchini jamiyatdan chiqishi yoki chetlatilshi bo‘yicha majburiyatlari miqdorini belgilaydi.[3] Ishtirokchining ustav kapitalidagi ulushi ishtirokchining jamiyatga nisbatan mulkiy va nomulkiy huquqlari (korporativ huquqlari) majmui mavjudligini tasdiqlaydi va ulush hajmi bu huquqlar doirasini belgilaydi.

Ulush quyidagi uch funksiyasi amalga oshiradi:

- ishtirokchining kompaniyadagi moliyaviy hissa miqdori;
- ishtirokchining huquqlari ko’rsatgichi;
- mulk huquqi (sotiladi, garovga qo’yiladi).

Ulushning huquqiy tabiatiga to’xtaladigan bo’lsak, ulush o’zida mulk huquqi va shartnomaviy huquq xususiyatlarini ifodalaydi. Ulush bu mulkning bir qismiga egalikni bildirmasdan, balki bir qancha huquqlar jamlanmasiga egalikni bildiradi.

[3] B.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq o’quv qo’llanma. Toshkent 2021. 22-24 betlar.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Masalan:

- ovoz berish;
- dividend (AJ) yoki foyda (MCHJ) olish;
- direktorni saylash.

Mulk huquqi sifatida_ulush sotilishi, ijaraga berilishi, garovga qo'yilishi mumkin.Shartnomaviy huquq sifatida esa ma'lum bir majburiyatlarni olishi mumkin.

Jumladan:

- sotib olishdagi imtiyozli huquq;
- sotishga qarshi qo'yilgan ustavdagi cheklovlar.

Ulush mulk sifatida tavsiflansada ishtirokchi jamiyat mulkiga egalik qila olmaydi, chunki u jamiyatga o'z ulushini kiritgan paytdan e'tiboran, bu ulush ,jamiyatning mulkiga aylanadi. Ishtirokchilarning, ulushlari quyidagi usullarda o'tishi mumkin:

- ta'sis shartnomasini imzolash orqali;
- kompaniya ulushini ko'paytirish;
- mavjud ishtirokchidan ulushni sotib olish orqali;
- ishtirokchining vafoti natijasida meros orqali

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Yuqorida korporativ munosabatlarga qisqacha oydinlik kiritdik, endi, qonunchilikda mavjud ayrim muammolarni birma-bir tahlil qilish orqali, ularga yechim berishga harakat qilamiz. Xususan amiyat ishtirokchisining, jamiyat ustav fondidagi ulushining (ulushi bir qismining) jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga o'tishi "Ma'suliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonuning 20-moddasida tartibga solingan. Jumladan, jamiyat ishtirokchisi, jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki uning bir qismini jamiyatning bir yoxud bir necha ishtirokchisiga, sotishga yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga voz kechishga haqli. Bunday bitimni tuzish uchun, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatning yoki jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligi talab qilinmaydi. Umumiy qoidaga ko'ra jamiyat ishtirochisi o'z ulushini istalgan vaqtda sotishi mumkin biroq, jamiyat ustavida ulushlarning o'tkazilishiga oid maxsus qoidalar ham belgilanishi mumkin.

Qonuning 20-moddasida "jamiyat ishtirokchisi, agar jamiyatning ustavida taqiqlangan bo'lmasa, o'z ulushini uchinchi shaxslarga sotishi yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga voz kechishi mumkin" degan qoida mustahkamlangan. Demak qonunga ko'ra ustavda ulushning uchinchi shaxsga sotilishini cheklab qo'yish mumkin. Agarda, ustavda ulushning uchinchi shaxslarga sotilishi cheklangan bo'lsa, o'z ulushini sotish niyatidagi ishtirokchi boshqa jamiyat ishtirokchilariga, hamda, jamiyatga ulushni sotishni taklif qilsayu lekin, ular tomonidan uning ulushi sotib olinmasa, bunday holda ishtirokchi qanday qilib o'z ulushini sotib jamiyatdan chiqib ketishi mumkin. Bu o'z navbatida ishtirokchining qonunni 8-moddasida nazarda tutilgan "jamiyat ishtirokchisi, jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish" huquqi cheklanishiga sabab bo'lmaydimi. O'z o'zidan ma'lumki qonunda ushbu vaziyat ta'sis hujjatlarining qoidalariga ko'ra hal qilinishi kerakligi nazarda tutilmoqda, biroq, ustavda ulushning uchinchi shaxslarga sotilishi ta'qiqlangan bo'lib, lekin sotilishi taklif etilayotgan ulushning keyingi taqdiri qanday hal qilinishi belgilanmagan bo'lsa yani ulush bu vaziyatda majburiy tartibda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadimi yoki jamiyat sotib oladimi yoki boshqa qoidalar ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu holatda o'z ulushini sotib jamiyatdan chiqish istagidagi ishtirokchining taqdiri qanday hal qilinadi. Afsuski, qonunchilikdagi ushbu bo'shliq, kichik lekin ayni damda dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari 262-sonli plenum qarorining

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

21-bandiga asosan ishtirokchi tomonidan jamiyatga nisbatan berilgan o‘zini jamiyatdan chiqarish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilinganda, bunday talabni qanoatlantirish rad qilinishi belgilangan. Demak, ishtirokchi o’zini jamiyatdan chiqarish to’g’risidagi talab bilan sudga murojaat qilganda, uning talabi qanoatlantirilmaydi, chunki qonuning 8-moddasida uni jamiyatda chiqish huquqi bor, lekin amalda ustav qoidalari bunga yo’l qo’ymaydi. Shu sababli ham sud amaliyotida ushbu muammoni sudlar, boshqa shaxslarni jamiyatga majburiy kiritish to’g’risida hal qiluv qarorini chiqarish orqali hal qilmoqdalar. Lekin, bu yopiq turdagi korporativ munosabatlarga ziddir. Bunday qarorlar chiqarilishining oldini olish uchun, qonunga agarda, ustavda ulushning uchinchi shaxslarga sotilishi cheklangan bo’lsa, va bu ulush imtiyozli huquqda sotib oluvchilar tomonidan sotib olish rad etilgan, yohud ular xabarnoma berilgan kunda e'tiboran bir oy ichida javob bermagan taqdirda, ulush uchinchi shaxslarga sotilishi mumkinligi, agarda bunga boshqa ishtirokchilar qarshi bo’lsa, ulush jamiyat tomonidan majburiy sotib olinishi, yohud ishtirokchilarning ulushiga mutanosib ravishda sotib olinishini nazarda tutuvchi qoidalar, istisno tariqasida kiritilishi maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Jamiyat ishtirokchilaridan birortasi tomonidan sotilayotgan ulushni sotib olishda jamiyat ishtirokchilari uchinchi shaxslar oldida imtiyozli huquqdan foydalanadi. Bunday huquqdan jamiyatning har bir ishtirokchisi foydalanishi mumkin. Agar, jamiyatning ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida imtiyozli huquqni amalga oshirish uchun ulushni sotib olishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, jamiyat ishtirokchilari tomonidan ulushni sotib olish ustav fondidagi o‘z ulushlari miqdorlariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Agar, jamiyatning boshqa ishtirokchilari jamiyatning ishtirokchisi tomonidan sotilayotgan ulushni sotib olishda o‘zining imtiyozli huquqidan foydalanmagan bo‘lsa, jamiyat mazkur ulushni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi.

O‘z ulushini uchinchi shaxsga sotish niyatida bo‘lgan jamiyat ishtirokchisi ulushning sotilish bahosini va boshqa shartlarni ko‘rsatgan holda, bu haqda jamiyatning qolgan ishtirokchilarini va jamiyatning o‘zini yozma shaklda xabardor qilishi shart. Jamiyatning ustavida xabarnoma jamiyat ishtirokchilariga jamiyat orqali yuborilishi nazarda tutilishi mumkin. Shuni inobatga olish kerakki, xabarnomaning aniq shakli qanday bo’lishi qonunchiligimizda nazarda tutilmagan, xususan, yozma hujjatlashtirilgan tarzdami yoki shunchaki elektron aloqa vositalaridan xabar yuborish orqalimi. Ta’kidlash joizki, ustavda xabarnomani yuborish tartibi ko’rsatilishi mumkin albatta, biroq, ko’rsatilmagan bo’lsachi, aksariyat ustavlarda bu haqida hech qanday qoidalar keltirilmagan va bu keyinchalik ishtirokchilar o’rtasida nizo kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin. Meni fikrimcha, xabarnoma qat’iy belgilangan yozma shaklda yozilishi va bu jamiyat orqali ishtirokchilariga rasmiy tarzda yuborilishi kerak deb o’ylayman.

Qoida tariqasida, sotuvchi o’z ulushini sotish to’g’risida, jamiyatga va uning boshqa ishtirokchilariga xabar bergan kundan boshlab, bir oy ichida sotilishga taklif etilayotgan ulushni, sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanilmagan yoki sotib olish rad etilgan taqdirda, ulush jamiyatga va boshqa ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan bahoda va shartlarda uchinchi shaxslarga sotilishi mumkin. Bundan anglashiladiki, o’z ulushini sotish niyatida bo’lgan ishtirokchi to’g’ridan-to’g’ri ulushini uchinchi shaxslarga sota olmaydi, birinchi bo’lib imtiyozli huquqqa ega bo’lgan jamiyat ishtirokchilari hamda jamiyatga taklif kiritadi, agarda ular ushbu huquqdan foydalanmasalar, ulush boshqa shaxslarga sotiladi. Shuni inobatga olish lozimki, ulushning dastlabki bahosini pasaytirish orqali uchinchi shaxsga sotilishini, imtiyozli huquqqa ega bo'lgan ishtirokchilarning ulushni sotib olishdan bosh tortganligi vaji bilan qonuniy deb bo’lmaydi, chunki bu, jamiyat ishtirokchilarining manfaatlariga zid. Ulushning dastlabki bahosini pasaytirilishi uni yana bir bor jamiyat ishtirokchilariga hamda jamiyatga taklif qilishni taqazo etadi. Agarda ulush sotib olishning imtiyozli huquqi buzilgan holda, sotilgan taqdirda, jamiyatning ishtirokchisi yoki jamiyat bunday buzilishni bilgan yoxud uni bilishi lozim bo‘lgan paytdan e’tiboran uch oy ichida **sotuvchining** huquqlari va majburiyatlarini o‘ziga o‘tkazishni

sud tartibida talab qilishga haqliligi qonuning 20-moddasi 9-qismiga belgilab qo'yilgan. Bunga nomutanosib ravishda, Fuqarolik kodeksining 224-moddasida belgilanishicha, agarda, "ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda, boshqa mulkdorlar uch oy mobaynida **sotib oluvchining** huquq va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar" degan qoida mustahkamlangan. Bu o'z navbatida ikki bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatning bir biriga zid kelishi hisoblanadi, bunday vaziyatda "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuning 18-moddasiga aosan, keyinroq qabul qilingan normativ huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi. Agarda bu qoidaga bo'ysunadigan bo'lsak keyinroq qabul qilingan "Masuliyati cheklangan hamda qo'shimcha masuliyatili jamiyatlar to'g'risida"gi qonuning qoidalarini qo'llashimiz kerak. Biroq, nima sababdan imtiyozli huquqqa ega bo'lgan jamiyat ishtirokchisi yoki jamiyat, sotuvchining huquq va majburiyatlarini o'ziga o'tkazishni sud tartibida talab qilishi kerak, bundan nima manfaat, aksincha sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini talab qilishi kerak emasmi? Aslida ham shunday bo'lishi lozim. Fuqarolik kodeksida ushbu munosabat to'g'ri tartibga solingan, chunki imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilar, sotilgan ulushni sud tartibida o'zlariga sotish yuzasidan da'vo qilib chiqadilar, aksincha ushbu ulushni biz sotaylik deb da'vo qilishmaydiku, bu meni fikrimcha umuman olganda mantiqqa to'g'ri kelmaydi, chunki, har bir ishtirokchining o'z ulushni sotish huquqi, sotilgan ulushga mutanosib narx olish huquqi hamda sotilgan ulushlarini boshqa shaxsga o'tkazish majburiyati faqat uning o'ziga (ulush egasiga) tegishli. Shu sababli imtiyozli huquqdan foydalanuvchi ishtirokchilar hamda jamiyat sudga sotib oluvchining huquqlarini o'zlariga o'tkazilishi yuzasidan da'vo kiritishlari to'g'ri bo'lar edi. Yuqoridagi vaziyatni qonunchilikdagi kichik noaniqliklardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi, agarda u tegishli taribda muvofiqlashtirilmasa amaliyotda katta muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ulush jamiyat ishtirokchilariga mulkiy va nomulkiy huquqlarni beradi. Nomulkiy huquqlardan biri bu jamiyat boshqaruvida muhim masalalarni hal etishda ovoz berish huquqi hisoblanadi. Xo'sh ushbu huquqlarga jamiyat ishtirokchilari qaysi paytdan boshlab ega bo'ladi degan savol tug'iladi. Ulushni kiritgan vatdan boshlabmi yoki oldi – sotdi shartnomasi tuzilgan vaqtdan boshlabmi? Unisi ham bunisi ham emas. "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 262-sonli plenum qarorining 3 - bandiga asosan, xo'jalik shirkati qonunda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilib, yuridik shaxs maqomini olganidan so'ng unda o'z ulushi (payi, hissasi)ga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs, ushbu xo'jalik shirkatining ishtirokchisi hisoblanadi.

Demak, yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan yohud takroriy ro'yxatdan o'tganidan so'ng, ustavda o'z ulushi ko'rsatilgan shaxslar jamiyat ishtirokchilari maqomiga ega bo'ladilar, hamda qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar. Lekin amaliyotda shunday holatlar ham bo'lganki, hali jamiyat ishtirokchisi hisoblanmagan shaxs jamiyatning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etib, hattoki, jamiyat ishtirokchilari qatorida ovoz berish huquqiga muyassar bo'lgan.

Shu o'rinda 2019-yil 6 – dekabr kuni Oliy sud tomonidan nazorat tartibida ko'rilgan 4-1001-1901/14310 - sonli ishni muhokama qilishni lozim topdim. "AAA" MCHJ (da'vogar hamda sotuvchi) ning, " CCC " qo'shma korxonasi (javobgar) da 1 560 000 AQSH dollarni tashkil etuvchi, 39 % ga teng ulushi mavjud.

2019 –yil 15 –mart kuni "AAA" MCHJ (sotuvchi, davogar) va "BBB " MCHJ (sotib oluvchi) o'rtasida ulush oldi - sotdisi bo'yicha dastlabki shartnoma, 2019-yilda 26-marta esa asosiy shartnoma tuzilgan. Shartnomaning 1.1 – bandiga muvofiq, "AAA" MCHJ ning " CCC " qo'shma korxonasi (javobgar) da o'ziga tegishli bo'lgan 1 560 000 AQSH dollarni tashkil etuvchi 39 % ga teng ulushni 37 500 000 000 so'm evaziga sotish, sotib oluvchi esa pul

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

mablag'larini shartnomaning 4.2 –bandida nazarda tutilgan jadvalga muvofiq uch bosqichda, yani shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 7 kalendar kun mobaynida 11 710 000 000 so'm, ulushni topshirish qabul qilish dalolatnomasini imzolagan kundan e'tinboran, 7 kalendar kun mobaynida 23 100 000 000 so'm, va 2024-yil 31-martga qadar 2 690 000 000 so'm to'lash majburiyatini olgan.

2019 yil 15 - martda 11 710 000 000 so'm, 2019-yil 12 - aprelda 23 100 000 000 so'm pul mablaglari davogarga to'lab berilgan. 2019-yil 26-martda davogar va sotib oluvchi o'rtasida javobgarning ustav fondidagi 39% ulush topshirish va qabul qilish dalolatnomasi orqali rasmiylashtirilgan. Sotib oluvchining talabiga ko'ra 2019-yil 26-martda javobgar jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirgan, unda 61% ulush egasi "DDD" MCHJ hamda 39% ulushning yangi egasi bo'lgan " BBB " MCHJ (sotib oluvchi) ning vakillari ishtirok etishgan. Yig'ilishda 39 % ulushga ega bo'lgan " AAA " MCHJ o'z ulushini " BBB " MCHJ ga sotganligi bois ustavni yangi taxrirda qabul qilish haqida bir ovozdan qaror qabul qilingan. Ushbu umumiy yig'ilish qaroriga asosan jamiyatning yangi taxrirdani ustavi DXM da ro'yxatdan o'tkazilgan. E'tiborli jihati shundaki, ulushning asl egasi umumiy yig'ilishga chaqirilmagan. Bundan norozi bo'lgan "AAA" MCHJ tumanlararo iqtisodiy sudga shikoyat qilib, o'z shikoyatida, sotib oluvchi tomonidan to'lov shartlari buzilgan, hamda uning o'rniga hali ulushga egaligi davlat ro'yxatiga olinmagan sotib oluvchi ishtirok etganli, hamda jamiyat ustavida ustavga kiritiladigan o'zgartirishlar ishtirokchilarning to'rtdan uch qismi yani 75% ovoz bilan hal etilishi, biroq 39% ga ega bo'lgan davogar ishtirok etmaganligi bois ushbu talab buzilganligini ta'kidlab, umumiy yig'ilish qarorini bekor qilishni so'ragan. Lekin tumanlararo iqtisodiy sud davogarning talablarini qanoatlantirishni rad etgan. Bundan tashqari apellatsiya va kassatsiya instansiya sudlarida ham davogarning talabini qanoatlantirish rad etilgan. Va nihoyat 2019-yil 6 – dekabr kuni Oliy sud tomonidan ushbu ish nazorat tartibida ko'rib chiqilib, sudlov hayati quyidagi asoslarga ko'ra sud qarorlarini bekor qilib, da'vo talabini qanoatlantirish to'g'risida yangi qaror qabul qilgan.

Xususan yuqoridagi vaziyatda hali ulushga egaligi davlat ro'yxatidan o'tmagan shaxs, umumiy yig'ilishda ishtirok etgan. Qonuning 11-moddasiga asosan, jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar, 66-sonli VMning qaroriga asosan DXMda qayta ro'yxatdan o'tkazilishi kerak, va bu o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, uchinchi shaxslar uchun kuchga kirishi belgilangan. Bundan tashqari qonuning 41-moddasiga binoan, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Ushbu asoslarga ko'ra oliy sud da'vogarning talablarini qanoatlantirganligi qonuniydir, zero qonuning 34-moddasiga binoan, jamiyatning ro'yxatdan o'tmagan ishtirokchisi, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas. Bundan tashqari jamiyatning DXM da ro'yxatdan o'tgan ustavida ko'rsatilgan ishtirokchilari, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish va qarorlarni qabul qilishda ovoz berish huquqiga egadirlar. Qonuning 34-moddasiga asosan jamiyatning jamiyat ishtirokchilarining ko'rsatib o'tilgan huquqlarini cheklovchi, jamiyat organlarining qarorlari haqiqiy emas deb topiladi. Yuqoridagi holatda umumiy yig'ilish qarori 39 % ulushga ega bo'lgan " AAA " MCHJ ning ishtirokisiz qabul qilingan, bu vaziyatda uning ovoz berish huquqi cheklangan, bundan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazilishi uchun kvorum mavjud emas, chunki jamiyat ustavida, ustavga kiritiladigan o'zgartirishlar ishtirokchilarning to'rtdan uch qismi yani 75% ovoz bilan hal etilishi belgilangan bo'lib, majlisda faqat 61 % ga ega bo'lgan "DDD" MCHJ ishtirok etgan. Ushbu asoslarga ko'ra Oliy sud " AAA " MCHJ ning davosini qanoatlantirib, umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topganligi qonuniydir.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

XULOSA:

Korporatsiya kishilar guruhi, ittifoqi, muayyan kasb yoki manffatdagi kishilar birlashmasi hisoblanib, u o'zida beshta asosiy tarkibiy xususiyatlarini mujassamlashtiradi jumladan: mustaqil yuridik shaxs, cheklangan javobgarlik, erkin o'tkaziladigan ulushlar, kompaniya kengashi tarkibida markazlashtirilgan boshqaruv, korporatsiya nomidan uning organlari harakat qilishi, hissadorlarning xususiy kapitalga birgalikda egalik qilishi.

Ulush – bu korporatsiya ishtirokchisiga mulkiy va nomulkiy huquqlar kompleksini taqdim etadi va uch funksiyani amalga oshiradi: ishtirokchining kompaniyadagi moliyaviy hissa miqdori, ishtirokchining huquqlari ko'rsatgichi, mulk huquqi. Ulush bu mulkning bir qismiga egalikni bildirmasdan, balki ovoz berish, dividend olish, direktorni saylash kabi huquqlar jamlanmasiga egalikni bildiradi.

Masuliyat cheklanga jamiyat ishitirokchilari jamiyatdan istalgan vaqtda chiqish huquqiga ega, lekin qonunchilikdagi ayrim qoidalar buni qisman inkor etadi, bu esa jamiyatning ommaviy bo'lmagan jamiyat ekanligi bilan baholansada biroq, ishtirokchilarning huquqlarini ma'lum darajada cheklaydi.

Jamiyat ishtirokchilaridan birortasi tomonidan sotilayotgan ulushni sotib olishda jamiyat ishtirokchilari uchinchi shaxslar oldida imtiyozli huquqdan foydalanadi. Agar jamiyatning ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida imtiyozli huquqni amalga oshirish uchun ulushni sotib olishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat ishtirokchilari tomonidan ulushni sotib olish ustav fondidagi o'z ulushlari miqdorlariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Agar, jamiyatning boshqa ishtirokchilari jamiyatning ishtirokchisi tomonidan sotilayotgan ulushni sotib olishda o'zining imtiyozli huquqidan foydalanmagan bo'lsa, jamiyat mazkur ulushni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi. O'z ulushini uchinchi shaxsga sotish niyatida bo'lgan jamiyat ishtirokchisi ulushning sotilish bahosini va boshqa shartlarni ko'rsatgan holda, bu haqda jamiyatning qolgan ishtirokchilarini va jamiyatning o'zini yozma shaklda xabardor qilishi shart. Bu vaziyatda xabarnoma qat'iy belgilangan yozma shaklda yozilishi hamda jamiyat orqali ishtirokchilariga rasmiy tarzda yuborilishini nazarda tutuvchi qoida qonunchiligimizda belgilab qo'yishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qoida tariqasida sotuvchi o'z ulushini sotish to'g'risida, jamiyatga va uning boshqa ishtirokchilariga xabar bergan kundan boshlab, bir oy ichida sotilishga taklif etilayotgan ulushni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanilmagan yoki sotib olish rad etilgan taqdirda, ulush jamiyatga va boshqa ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan bahoda va shartlarda uchinchi shaxslarga sotilishi mumkin. Ulush, sotib olishning imtiyozli huquqi buzilgan holda, sotilgan taqdirda, jamiyatning ishtirokchisi yoki jamiyat, uch oy ichida sotuvchining huquqlari va majburiyatlarini o'ziga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqliligi to'g'risidagi, qonuning 20-moddasi 9-qismida belgilab qo'yilgan qoidani, Fuqarolik kodeksining 224-moddasida "ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda, boshqa mulkdorlar uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar" degan qoidaga muvofiqlashtirish lozim, zero ishtirokchilar sotib oluvchining huquqlarini talab qilishlari mantiqan to'g'ri bo'lar edi.

Shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan so'nggina ustavda o'z ulushi ko'rsatilgan shaxslar jamiyat ishtirokchilari maqomiga ega bo'ladilar, hamda qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar. Ulushga egaligi davlat ro'yxatidan o'tmagan shaxs, umumiy yig'ilishda ishtirok etishga huquqi yo'q bo'lganligi bois, agar shu hol yuz bersa umumiy yig'ilish qarori manfaatdor tarafning talabi bilan sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi. Bundan tashqari jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ma’suliyati cheklangan hamda qo’shimcha ma’suliyatlli jamiyatlar to’g’risida”gi 310 -II – son qonuni. 01.03.2002
2. O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to’g’risida”gi 262-son qarori. 20.06.2014

REFERENCES:

1. Y.G. Afanaseva, V.Y. Bakshinskas, Y.P. Gubin, Korporativnoe pravo uchebnik, M: KNORUS, 2015. C. 9-77.
2. H.R.Rahmonqulov S.S.Gulyamov. korporativ huquq. Darslik Toshkent 2008.
3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower’s Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016.
4. Suxanov. Y.A Sravnitelnoe korporativnoe prova. M. Ctatus 2014. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасьева, В.Ю. Бакшинскас, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 9-77
5. R. Romano. Foundations of Corporate Law. New York: Oxford Univ. Press, 1993.
6. Carsten Gerner-Beuerle, Michael Anderson Schillig. Comparative Company Law. OUP Oxford. 2019.
7. B. Umarov. X. Atajanov. Korporativ huquq o’quv qo’llanma. Toshkent, 2021.

WORDLY
KNOWLEDGE